



**Received:** October 1, 2024  
**Accepted:** December 23, 2024  
**Available online:** December 25, 2024

## Bahora Jo‘raxolova

Mustaqil izlanuvchi  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Toshkent, O‘zbekiston

### **FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDAGI KONSEPTUAL METAFORALARNING KOGNITIV VA LINGVOMADANIY YONDASHUVLARI**

#### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad – konseptual metaforaning gender xususiyatlarini ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlar va paremiyalar misolida chog‘ishtirma tadqiq qilish. Tadqiqotimizning vazifalari konseptual metafora va gender aspekti tushunchalarini ifodalashda metaforani mental hamda verbal konstruksiya sifatida ko‘rib chiqish g‘oyasini amalga oshirish; metaforani o‘rganishga tavsifiya etilgan yondashuv – milliy majoziy tushuncha sohalari izchil qayta qurishga imkon berish va ularni qiyosiy tadqiq qilish; obrazli va metaforik tafakkurning mohiyati, mexanizmlarini yaxshiroq tushunish imkonini berishdan iborat.

Olib borilayotgan tadqiqotimizda konseptual metaforalarni kognitiv va lingvomadaniy jihatdan tadqiq qilishda metafora obyektini tavsiflash va ko‘rsatish uchun xizmat qiladigan, boshqa obyekt bilan o‘xshashligi yoki assosiativ o‘xshashligi asosida yaratilgan konstruksiya, insonning kognitiv metaforogen faoliyati, metaforizatsiya faktlarini kognitiv-semantik tahlil qilish, metaforalarni til (nutq) vositasi sifatida o‘rganish va metafora tushunchalarini ifodalashda, til hodisasini integrativ tavsiflashda kontentni tahlil qilish, metaforik modellashtirish, komponent tahlili, kontekstual tahlil, kognitiv izohlash va konseptual tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot davomida olingan natijalarga ko‘ra, konseptual metaforalarni kognitiv va lingvomadaniy jihatdan tadqiq qilish metaforalarning til va kognitiv jarayonlardagi rolini tushunishga, uning metodologik asoslari va

## Bahora Jurakhlova

Independent Researcher  
Uzbekistan State World Languages University  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: bahora\_88@mail.ru  
ORCID iD: 0009-0009-7023-7904

### **COGNITIVE AND LINGUOCULTURAL APPROACHES TO CONCEPTUAL METAPHORS IN PHRASEOLOGICAL UNITS**

#### **ABSTRACT**

The primary objective of this article is to examine the gender characteristics of conceptual metaphors through the analysis of phraseologisms and paremies in English and Uzbek languages. The research aims to implement the concept of metaphor as a mental and verbal construction in expressing conceptual metaphor and gender aspects. The proposed approach to metaphor study facilitates the consistent reconstruction of national figurative understanding domains and their comparative analysis. This approach aims to enhance comprehension of the essence and mechanisms of figurative and metaphorical thinking.

In our ongoing research, within the cognitive and linguistic-cultural investigation of conceptual metaphors, the metaphor is considered a mental-verbal construction that serves to describe and illustrate an object based on its similarity or associative resemblance to another object. In the cognitive analysis, study of metaphors as a language (speech) tool, and expression of metaphor concepts, methodologies such as content analysis, metaphorical modeling, component analysis, contextual analysis, cognitive interpretation, and conceptual analysis were employed for the integrative description of the language phenomenon.

This research indicates that studying conceptual metaphors from cognitive and linguistic perspectives enhances understanding of their role in language and cognition, clarifies methodological foundations, and offers

rivojlanish istiqbollarini aniqlashda tilshunoslik, lingvokulturologiya, kognitiv fanlar sohasidagi tadqiqotchilar va amaliyotchilarning shu sohadagi bilimlarini takomillashtirishga yordam beradi. Ushbu tadqiqot ularning mutaxassis sifatida shakllanishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Metafora bugungi kunda deyarli barcha sohani – ta'lim, siyosat, iqtisod, marketing kabi sohalarni qamrab olgan bir paytda shuni yodda tutishimiz kerakki, metafora faqat adabiy tilda tadqiq qilish sohasi emas, balki bu jarayon til bilan bog'liq bo'lgan umumiy masaladir.

Mazkur natijalar, o'z navbatida, konseptual metaforani kognitiv va lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilishda ilmiy tadqiqotchilar va talabalarning ilmiy faoliyatlarida muvaffaqiyatli natijalarga erishishlarida qiyoslanayotgan tillarning metaforik nominatsiyalarni o'rganishda metaforik tafakkurning mohiyati va mexanizmlarini yaxshiroq tushunishga, metaforani tadqiq qilish metodlariga amal qilish kerak, degan xulosani keltirib chiqardi. Maqolada konseptual metaforalarning tizimliliigi bo'yicha keyingi amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadqiqotlar bo'yicha takliflar ham berilgan.

**Kalit so'zlar:** eksplitsit, implitsit, kognitiv mohiyat, konseptual maydon, metaforik qism, oriyentatsion metafora, konseptual metafora, lisoniy kategoriyalash.

## KIRISH

Bugungi kunda yurtimizda gender tilshunoslik sohasida ko'plab ilmiy ta'dqiqotlar olib borilmoqda. Gender aspektining tilshunoslikda hali o'rganilmagan sohalaridan biri bo'lgan konseptual metaforaning gender xususiyatlari tilshunoslikning bir yutug'idir. Ushbu maqolada konseptual metaforaning mazmun-mohiyati, olimlar tomonidan o'rganilganlik darajasi, gender aspektining konseptual metaforalarda qo'llanilishi tadqiq qilinadi.

Tilshunos J.Lakoff va faylasuf M.Jonson o'zlarining “Biz yashayotgan metaforalar” asarida metafora shunchaki badiiy matnlarda uchraydigan bezak vazifasini bajaradigan ritorik vosita emas, balki metafora ajralmas vosita ekanligini ta'kidlaydilar. Metafora kundalik tilimizning bir qismidir, chunki biz metaforalarda fikr yuritimiz va natijada ular bizning idrok va harakatlarimizga ta'sir qiladi [Lakoff & Johnson, 1980].

J.Lakoff va M.Jonsonning kognitiv-lingvistik metafora nazariyasi an'anaviy metafora nazariyalaridan juda farq qiladi, ularda metafora sof lingvistik hodisa sifatida qaraladi. Metaforaning ana shunday an'anaviy ko'rinishlaridan biri almashtirish nazariyasidir.

J.Lakoff va M.Jonson nazariyasi so'nggi bir necha o'n yilliklarda katta e'tirofga

development prospects. It significantly benefits researchers and practitioners in linguistics, linguistic culture, and cognitive sciences. Given that metaphors are prevalent in education, politics, economics, and marketing, it is essential to acknowledge metaphors as a general linguistic phenomenon, not just a literary research subject.

These results lead to the conclusion that it is necessary to further elucidate the essence and mechanisms of metaphorical thinking, adhere to established methods of metaphorical research, and achieve successful outcomes in the scientific activities of researchers and students studying conceptual metaphors from cognitive and linguacultural perspectives. The article addresses the systematicity of conceptual metaphors.

**Key words:** explicit, implicit, cognitive essence, conceptual field, metaphorical section, orientational metaphor, conceptual metaphor, linguistic categorization.

sazovor bo‘lgan bo‘lsa-da, u ham tez-tez tanqid qilindi. Misol uchun, nazariyaning juda noaniq va ba’zi joylarda ishonchsiz terminologiyasi borligi aytiladi. Ularning qo‘llanilishi ham tez-tez so‘roq qilinadi, chunki topilmalar odatda faqat lingvistik ma’lumotlarga asoslanadi va bu metaforik tuzilgan konseptual tizim uchun yetarli dalil emas.

Tadqiqotlarga ko‘ra, J.Lakoff va M.Jonsonning konseptual metafora nazariyasining asosiy taxminlari va ushbu nazariyaga oid tanqidlar umumlashtiriladi va nihoyat kelajakdagi tadqiqot ishlariga qisqacha nuqtayi nazar beriladi.

Konseptual metafora atamasi metaforaning konseptual doirasini tavsiflaydi. Bu manba domenini (bu asosiy domen ham bo‘lishi mumkin) maqsadli domenga proyeksiyasi (xaritalash) natijasida yuzaga keladi. Konseptual metaforalar tildan foydalanishni belgilaydi. Masalan, chat xonasi xona kabi jismoniy shaklga ega emas, Osiyo tillarida oynning boshi, nemis tilida fazoviy boshlanishi yoki oxiri bo‘lmaganidek, na bosh, na qo‘l, na oyoq bor. Konseptual metafora – lisoniy figuralar bilan chegaralangan metafora ritorik konsepsiyasidan farq qiladi. Konseptual metafora mazmunining lingvistik ko‘rinishi lingvistik metaforalarda namoyon bo‘ladi.

Kognitiv lingvistikada konseptual metafora yoki kognitiv metafora bir g‘oya yoki konseptual sohani boshqasiga nisbatan tushunishni anglatadi. Bunga misol qilib, miqdorni yo‘nalishga (masalan, “tinchlik narxi ortib bormoqda”) yoki pulga nisbatan vaqtni tushunishga munosabatda bo‘lish mumkin.

Konseptual metafora murakkab g‘oyalarni oddiy so‘zlar bilan tushunish uchun foydalidir va shuning uchun ko‘pincha, mavhum nazariyalar va modellar haqida tushuncha berish uchun ishlatiladi. Bizning kundalik muloqotimiz, ya’ni metafora tili bilangina emas, balki ilmiy nazariyalarni tushunishimiz bilan ham shakllanadi. Bu metaforalar nafaqat tilda, balki muloqotda ham keng qo‘llaniladi. Biz, aslida, metaforalarga muvofiq idrok qilamiz va harakatlanamiz.

Konseptual metafora ustida ishlashning asosiy tanqidi ko‘plab tadqiqotchilarning o‘z tadqiqotlarini olib borish usullaridan kelib chiqadi. Ko‘pchilik metaforalarni “yuqoridan pastga” yo‘nalishi bo‘yicha o‘rganadi, avval konseptual metaforalarni taklif qilish uchun ba’zi misollarni ko‘rib chiqadi va keyin bu metaforalarning tuzilishini o‘rganadi. Tildagi metaforalarni o‘rganish uchun tadqiqotchilar o‘zlarining leksikonini, lug‘atlarini va boshqa korpuslarini ko‘rib chiqdilar. Tanqidchilarning ta’kidlashicha, bu tilning amalda qollanilishiga e’tibor bermagan va faraziy metaforalarga juda ko‘p e’tibor qaratgan va ko‘p qoidabuzarliklarko‘proq universal hisoblanganlarini qo‘yish foydasiga jamlagan.

Konseptual metafora nazariyasi tadqiqotchilari konseptual metafora ustida ishlashning dastlabki bosqichlarida turli xil manbalardan lingvistik metaforalarni to‘plashgan: tele- va radioeshittirishlar, lug‘atlar, gazeta va jurnallar, suhbatlar, o‘zlarining til repertuarlari va boshqalar. Ular ko‘plab metaforik misollarni topishga muvaffaq bo‘lishgan, masalan, “Argumentni himoya qilish”, “g‘azabdan portlash”, “nazariya qurish”, “kishining ko‘zida olov”, “sovuq shaxs”, “qadam-baqadam jarayon”, “g‘oyani hazm qilish”, “o‘tayotgan (vafot etayotgan) odamlar”, “hayotda maqsadsiz sargardonlik” va tom ma’noda minglab boshqalar. Bunday lingvistik metaforalarning

hammasi bo‘lmasa ham, aksariyati ona tilida so‘zlashuvchilarning ong bilan bog‘liq leksikonining bir qismidir. Ular so‘zlarning ko‘proq asosiy ma‘nolaridan kelib chiqadi va psixologik leksika tarkibida yuqori darajadagi polisemiya va idiomatiklikni aks ettiradi. Leksikadagi bunday polisemiya va idiomatiklik holatlarining ko‘pligi metafora keng tarqalganligidan dalolat sifatida qabul qilingan. Bunday misollarga asoslanib, ular “Konseptual metafora” deb nomlanuvchi nazariyani taklif qilishgan. Biroq konseptual metafora nazariyasi nutqimizda uchraydigan har bir metafora ma‘lum bir konseptual metaforaga tegishli ekanligini da‘vo qilmaydi.

Konseptual metafora – bu ikki maydon o‘rtasidagi tizimli uyg‘unliklar to‘plami. Bu “bir ma‘noni boshqa ma‘no nuqtayi nazaridan tushunish” deganidir. Uni boshqa atama bilan “konseptual xarita” deb nomlasak ham bo‘ladi [Lakoff & Johnson, 1980]. Buning sababi shundaki, konseptual xaritada ba‘zi elementlar va ular o‘tasidagi munosabatlar asl ma‘noni ko‘zlangan ma‘noga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Quyida konseptual xarita “G‘azab, bu – olov” konseptual metaforasi misolida qanday ishlashi ko‘rsatilgan. Ushbu metaforani tashkil etuvchi tizimli konseptual xaritalarni taqdim etishdan oldin, konseptual metaforani o‘zbek tilida namoyon bo‘ladigan leksik usul bilan olingan ba‘zi lingvistik metaforalarni ko‘rib chiqamiz:

*Bu g‘azablantiruvchi so‘zlar edi.*

*Quloqlaridan tutun chiqayotgan edi.*

*U g‘azabdan yonardi.*

*Ko‘zlari olov bo‘lib yondi.*

Bunday misollarni hisobga olgan holda, quyidagi konseptual xaritalar ro‘yxatini taklif qilish mumkin:

*Olov – g‘azab*

*Olovning shiddati – g‘azabning shiddati*

*Yonayotgan odam – g‘azablanayotgan odam*

*Olovli ko‘zlar – g‘azabli ko‘zlar [Lakoff & Johnson, 1980]*

Ushbu xaritalar yordamida biz yuqorida sanab o‘tilgan metaforik iboralarning qanday ishlashini tushuntira olamiz. Masalan, nega yonish g‘azabni qo‘zg‘atishni anglatadi yoki nima uchun kuyish, olov bo‘lib yonish va g‘azabdan alanganish g‘azabning yuqori intensivligini ko‘rsatadi, ehtimol ular o‘rtasida shiddatli farqlar mavjuddir.

Ushbu xaritalar to‘plami tizimli bo‘lib, u olov bilan tasvirlangan g‘azabning izchil ko‘rinishini oladi. Masalan, biron bir buyumni misol qilib olaylik. Qandaydir hodisa yong‘inni keltirib chiqaradi va oddiy holatdagi buyumning yonishiga sabab bo‘ladi. Olov turli darajadagi intensivlik darajasida yonishi mumkin. Xuddi shunday g‘azabni ta‘svirlash uchun oddiy holatdagi bir kishini misol qilib olishimiz mumkin. Qandaydir hodisa kishining g‘azablanishiga olib keladi va u kishi g‘azablanadi. G‘azabning intensivligi o‘zgaruvchan bo‘ladi.

Konseptual xarita yong‘in ma‘nosidagi elementlar bilan g‘azab ma‘nosidagi elementlar o‘rtasidagi munosabatlarni moslashtiradi. Darhaqiqat, konseptual xaritada, yong‘in ma‘nosi biz ko‘rgan olov nuqtayi nazariga nisbatan g‘azabga sabab bo‘ladigan narsalarni keltirib chiqarishi kerak. Bu ma‘lum bir so‘z bilan boshqa bir ma‘noni

tasvirlash uchun ishlatilishini anglatadi.

Ma'noda metaforik ravishda ishlatiladigan elementlar to'plamini hisobga olgan holda, biz ushbu elementlar haqida qo'shimcha ma'lumot olishimiz mumkin va ushbu qo'shimcha bilimlarni ko'zlangan ma'noga muvofiqlashtirishi mumkin. Bu esa "metaforik xulosa" yoki "metaforik ta'sir" deb ataladi. Masalan "U g'azabdan tutab ketdi" jumlasini misol qilib keltiramiz. "G'azabdan tutab ketmoq" jumlasini metaforik xulosa sifatida ko'rishimiz mumkin. Agar g'azab olov sifatida ifodalansa, u yana ham bo'rttirilib ko'rsatiladi va g'azabning yuqori darajadali haqida ma'lumot beradi. Konseptual metafora nazariyasi konseptual metaforalar bilan bog'liq bunday holatlarni izohlashning muhim ekanligini ko'rsatib beradi [Lakoff, 1990].

Tadqiqotimizda, shuningdek, frazeologik birliklar va paremiyalarning umumiy konsepsiyasi ularning har ikki xalqning milliy-madaniy qadriyatlarini yoritish bilan birga, ijtimoiy hodisalar jarayonida yuzaga keladigan lingvomadaniy vositalarni ifodalashda va jamiyatning o'ziga xos milliy kommunikativ jarayoni uchun xizmat qilishda namoyon bo'ladi.

I.Zikova ta'kidlaganidek: "Tilning frazeologik qatlaminin universal xususiyatlaridan biri shundaki, u ulkan madaniy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni saqlay olish va zamonaviy, dolzarb ijtimoiy-madaniy voqea-hodisalarni o'zida aks ettirish xususiyatiga egadir. Bu esa, frazeologik vositalar yordamida yangidan yangi konseptlarning paydo bo'lishiga o'z ta'sirini o'tkazadi" [Zikova, 2001; 150].

Frazeologik birliklar va paremiyalarda gender aspektining kognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar asosida qiyosiy tadqiqi ma'lum bir jamiyatga xos milliy mentallikni lingvistik jihatdan tahlil etish imkoniyatini beradi. "Frazeologik birliklar va paremiyalarni qiyoslashda tillararo lingvomadaniy farqlar yorqin ifodalanadi, zero frazeologiya milliy obrazlar, ya'ni turli xalqlarning madaniy konseptlari bilan chambarchas bog'liq" [Yusupov, 2007; 123]. Bu borada lingvomadaniyatshunoslikda har bir madaniyatning milliy qadriyatlari asosida o'ziga xos "konseptini" tadqiq etish imkoniyatlarini gender tilshunosligiga tatbiq etish ayollik va erkaklik konseptlari haqida to'liq ma'lumot olish imkoniyatini beradi.

Shuni aytish mumkinki, so'nggi yillarda antropologik paradigmada o'zbek frazeologiyasining kognitiv, gender va pragmatik xususiyatlarini ochib berish va qiyosiy tadqiq etish yuzasidan o'ziga xos ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Til va madaniyat mavzusi ko'plab mashhur tilshunos olimlar: aka-uka Grimm, V.Gumboldt, L.Shteyntal, A.A. Veysgerber, A.A. Afanasev, A.A. Potebnya, U.Sepir kabilarning asarlaridan joy oldi. Biroq bu mavzuning tilshunoslik olamida yanada kengroq tus olishida V.Gumboldtning g'oyalari ahamiyatli o'rin egalladi. V.Gumboldt konsepsiyasining asosiy mazmuni quyidagicha edi: moddiy va ma'naviy madaniyat tilda mujassamlashib, til inson va uni o'rab turgan dunyo o'rtasidagi bog'lab turuvchi halqa hisoblanadi. Uning "Til – xalq ruhiyati ifodasi", "Til – harakat (ruhiyatning harakati)" kabi konsepsiyalari til nazariyasini yana bir yuqori bosqichga ko'tardi. Zero, aynan tilda xalq ruhiyati mujassamlashadi, shakllanadi va rivojlanadi.

V.Gumboldtning g'oyalari ta'sirida XIX asrning ikkinchi yarmida A.A. Potebnya tomonidan til va xalq ruhiyatining o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi

fikrlar ko‘rib chiqildi. U tilga madaniyat va xalq ma‘naviy dunyosining tashkil etuvchisi sifatida qaradi. A.A. Potebnya til va ongning o‘zaro bog‘liqligi masalasiga “Tafakkur va til” (“Мысль и язык”) asarida to‘xtalib, unda o‘zini nafaqat tilning yetuk faylasufi sifatida ko‘rsatdi, balki bir qator o‘ziga xos chuqur nazariyalarni ishlab chiqdi. A.A. Potebnyaning tilshunoslik va folklorshunoslik borasidagi tadqiqotlarining diqqat markazida “xalq” tushunchasi turgan. Xalq – til va xalq og‘zaki ijodi orqali tasvirlangan. Uning ijodida tilshunoslik va folklorshunoslik bir negizda turgan. Zero, “folklor xalqning azaliy bo‘lgan etnik va milliy mohiyatini hamda dunyoqarashini belgilovchi vositadir” [Petrov, 1966; 28].

Madaniyatni A.Vejbitskaya quyidagicha ta’riflaydi. “Madaniyat – belgilarda (ya’ni tilda) mujassamlashgan ma’nolarning tarixiy modeli, belgilar shaklida ifodalangan qarashlar tizimi bo‘lib, bu belgilar orqali insonlar bir-biri bilan muloqotda bo‘ladi, hayot haqidagi bilimlari va tajribalari ortadi” [Vezhbtskaya, 2001; 288].

Y.A. Gvozdevning frazeologik birlik tarkibidagi ramziy so‘zlarning qiyosiy tadqiqi frazeologizmlarni milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishning eng samarali usullaridan biri deb ta’kidlashi bejiz emas [Gvozdev, 1971].

Jahon tilshunosligi, xususan, metaforologiya bilan bog‘liq ilmiy ish va tadqiqotlar doirasida insonning metaforani qay darajada tushunish faoliyati turadi.

Metaforologiya – ilm-fan doirasidagi mustaqil tarkibiy birlik bo‘lib, ushbu kunga kelib metaforani olamni bilishning asosiy usullaridan biri sifatida tushunish uning tabiati, u hosil qilgan nomlarni falsafiy, mantiqiy, psixologik, neyrolingvistik metaforologiya ko‘lamida tekshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birgalikda, metaforalarning lingvokognitiv tabiati, yuzaga kelish shartlari, lug‘aviy birliklarning hosil bo‘lishidagi o‘rni va ahamiyati, tasnifi, metaforik nomlarni tilning korpusida berish yo‘llari, metaforik ma’no, nom va tushuncha munosabati kabilar ham tilshunoslikdagi asosiy masalalardan biriga aylangan.

Metaforologiyaning paydo bo‘lishi va alohida soha sifatida shakllanishini antroposentrik planda tadqiq etish, antik va o‘rta asr tilshunosligidan farqli, metaforalarning til va tafakkurga qaratilgan lingvokognitiv, lingvokulturologik, psixolingvistik tabiatini tushuntirish borasida dunyo tilshunosligida tadqiqot va ilmiy ishlar olib borilmoqda. Barcha sohada mavjud bo‘lganidek, metaforologiyada ham ba’zi javobi topilmagan tadqiqatlar ham bor, jumladan, metaforadagi nominativ vazifani antroposentrik yondashuv tamoyillari asosida tekshirish muammosi esa hanuz o‘z yechimini topganicha yo‘q. Bugungi kunda sohaning rivoj topishi bilan metaforaning inson kognitiv strukturasi hamda til sistemasiga daxldorligini asoslash yo‘llarini topish, kognitiv va konseptual metaforalarni o‘zaro farqlash, konseptual metafora nazariyasining taraqqiyotini belgilash yuzasidan aniq xulosalarga kelish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

Bir necha bor tan olingan va ta’kidlanganidek, metafora hamma joyda inson tili va tafakkurida uchraydi. Bu shuni anglatadiki, til o‘rganuvchilar butun o‘quv faoliyati davomida metaforik iboralarga duch kelishadi.

J.Lakoff va boshqa “Konseptual metafora” nazariyasini o‘rgangan olimlar, insonning tasviriy tilni ishlatishi va tushunishi tushunchalarni tuzadigan ongsiz

metafora yozishmalari vositachiligida bo‘ladi, deb ta’kidlashgan. Aloqadagi olimlar odamlar o‘zlarining shaxsiy tajribalarini tasvirlash uchun ishlatadigan majoziy iboralardan munosabat va e’tiqodlarni aniqlash uchun konseptual metafora asoslaridan foydalanganlar.

Arastu metaforani til mahorati va zukkolik belgisi deb bilgan, lekin uning metafora to‘g‘risida bezakli, she’riyatga mos, lekin falsafiy yoki ilmiy munozara uchun juda sirli degan fikrlari ham bo‘lgan [Aristotle, 1965; 201]. Garchi ko‘pchilik uning metaforani tushunish haqidagi hisobotini qo‘llab-quvvatlasa ham, zamonaviy tilshunos olimlarning ko‘pchiligi uning metafora foydaliligi haqidagi ba’zi nuqtayi nazarlariga qo‘shiladilar.

Konseptual metafora to‘g‘risidagi nazariya va ilmiy-qarashlar so‘nggi aloqa tadqiqotlari va nazariyasida juda ta’sirli o‘ringa ega bo‘ldi. Bu ta’sir kamida ikki jihatdan bebahodir. Birinchidan, u mavhum konsepsiyalarning lingvistik kodlanishiga juda zarur bo‘lgan ilmiy e’tiborni qaratdi [Kövecses, 1990; 1991; 2000; 2005; 2008; 2010]. Filologlar (L.Vittgenshteyndan tashqari) an’anaviy ravishda mebel, meva va sabzavotlar kabi tartibli obyekt tushunchalariga e’tibor qaratishsa, konseptual metafora nazariyotchilari g‘azab, sevgi, vaqt, nazariyalar, sabablar va shu kabi tushuncha hamda birliklar bilan shug‘ullanishgan [McGlone, 2001; 90]. Shuningdek, metaforik tasvir va ilmiy da’volar ustidan ilmiy munozaralar bu mavzular bo‘yicha ko‘proq tadqiqot olib borilishi ehtimoldan yiroq emas, albatta.

Ikkinchidan, konseptual metafora to‘g‘risidagi nazariya va ilmiy-qarashlar til tuzilishi konseptual tuzilmani qanday aks ettirishi mumkinligi to‘g‘risidagi qiziqishni qaytadan uyg‘otdi. Garchi ushbu tadqiqot tarixidagi ba’zi epizodlar (masalan, U.Sepir gipotezasining dastlabki tadqiqotlari) muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo‘lsa-da, bu, shubhasiz, qo‘shimcha e’tiborni talab qiladi [Lucy, 1992; 23].

### **TADQIQOT METODLARI**

Ushbu tadqiqotlarning ko‘p yo‘nalishlari nafaqat tilshunoslikka (bu yerda nutq tahlili, pragmatika va kontrastli tahlilning rivojlanishiga ham ta’sir o‘tkazib kelgan), balki xuddi J.Lakoff va M.Jonsonning o‘zlari ham 1980-yilgi “Biz bilan yashayotgan metaforalar” (“Metaphors We Live By”) kitobida aytib o‘tganidek, kognitiv – fan, falsafa, adabiyotshunoslik, siyosat, huquq, klinik psixologiya, din, hatto matematikaga ham taalluqli hisoblanadi [Gumperz & Levinson, 1996; 67].

Konseptual metafora nazariyasining eng asosiy muhim jihati shundaki, metafora shunchaki lingvistik hodisa emas, balki tushunchalar ongimizda qanday tashkil etilganligini aks ettiradi. Qaysidir ma’noda, konseptual metafora nazariyasi lingvistik metaforalar va insoniy bilish o‘rtasidagi munosabatlar haqida bahs yuritadi [Tay, 2014].

Til birliklarini kognitiv nuqtayi nazardan ko‘chma ma’noda qayta ko‘rib chiqish ikkilamchi konseptuallashtirishning o‘ziga xos sohasi – olamning birlamchi manzarasi bilan bir qatorda ma’lum bir jamiyatning lingvistik ongida mavjud bo‘lgan olamning ikkilamchi manzarasidir. Albatta, buning zamirida muayyan jamiyat vakillarining birlamchi assotsiativ manzarasining asosi yotadi. Ushbu konseptual qayta ko‘rib

chiqishda tasviriy obrazlar yetakchi rol o'ynaydi. Ular xalq vakillariga ta'sir etuvchi ekstralingvistik va lingvistik omillarning o'ziga xosligi bilan belgilanadi va shunga mos ravishda milliy rang-baranglik bilan ajralib turadi. Konseptning ikkilamchi nominatsiya jarayonida vujudga keladigan u yoki bu xalq vakillarining milliy ongida mustahkamlangan obraz ushbu konseptning umummilliy xususiyat kasb etishidan iborat bo'lgan standartlashtirishga olib keladi.

Ikkilamchi nominatsiya yordamida konseptlarni verballashtirish xususiyatlarini ham leksik, ham sintaktik darajada kuzatish mumkin. Leksik darajada ikkilamchi nominatsiya semantik siljish va semantik ma'no ko'chirish kabi qayta idrok etish mexanizmlari natijasida so'zlar ma'nosining o'zgarishiga ta'sir qiladi. Odatda, birlamchi va ikkilamchi talqinni farqlashadi. Birlamchi talqin dunyoni strukturalashni, insonning dunyo bilan bog'liq o'z tajribasini sxematizatsiyalashni o'z ichiga oladi. Birlamchi talqin natijasi tilning bevosita ishtirokida amalga oshirilgan va leksik sinflar va kategoriyalar tizimi shaklida tilga meros bo'lib qolgan tabiiy kategoriyalash tizimidir [Boldyrev, 1941].

Turli konseptual-tematik sohalar va turli fan sohalariga tegishli leksik kategoriyalarni tashkil etishdagi o'xshashliklar til birliklarida ikkilamchi (interpretatsiyalovchi) ma'nolarning rivojlanishiga asos bo'ladi va dunyo haqidagi bilimlarni ikkilamchi talqin qilish maqsadida ulardan turli fan sohalarida foydalanish imkoniyatini ta'minlab beradi [Boldyrev, 1926].

HUMAN BEING konsepti misolida tahlil o'tkazamiz. Agar u to'g'ridan-to'g'ri nominatsiyalanuvchi ma'noga ega bo'lgan leksik birliklar hisobiga ifodalansa, ushbu fikrlash tuzilmasi konsepsiyalash va kategoriyalashning birlamchi jarayonlari davomida olingan insonlar haqidagi bilimlarni namoyon qiladi. Bu yerda birlamchi interpretatsiya natijasi bo'lib insonlar va ularning xususiyatlari haqidagi bazaviy bilimlar majmuini til sathida aks ettira oladigan leksik kategoriya xizmat qiladi.

Verbalizatsiyalangan konseptlar tahlili jarayonida yangi konseptlar shakllanishi yuzaga keladi va ular verbalizatsiyaning asosiy vositasi idioma bo'lgan bilvosita, ramziy verbalizatsiyani talab qiladi [Alefirenko, 2008; 15]. Shu sababli ham ta'kidlash joizki, FBlar HUMAN BEING konseptini ifodalashning qo'shimcha ekspressiv vositalari hisoblanadilar, chunki ular odamlar haqidagi bilimlarning tajribaga (jamoaviy va individual) asoslangan ikkilamchi ma'lumotlariga egadirlar. Frazeologik birliklarning ma'nolari ikkilamchi talqin natijasini ifodalaydi.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, frazeologik birliklar mohiyatan interpretatsion funksiyaga ega bo'lgan birliklar sifatida harakat qiladi, interpretatsion kontekstda frazeologik birliklar ikkilamchi ma'nolarda ishlatiladigan leksik birliklardan ishlatish konteksti doimiy bo'lganligi bilan ajralib turadi.

Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, baholash xarakteridagi kognitiv jarayonlar (konseptualizatsiya va toifalash) "ular ma'lum bo'lgan obyektida muayyan (qo'shimcha) xususiyatlarni qidirish va ko'rsatishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bu alohida shaxs sifatida (shaxsiy baholash) yoki muayyan jamoa a'zosi sifatida (jamoaviy baholash) amalga oshiriladigan fikr, baholash, qadriyatlar, stereotiplar tizimi doirasida olingan bilimlarni ikkilamchi konsepsiyalash va ikkilamchi kategoriyalash,

mavjud bo‘lgan, verbalizatsiyalangan konseptlarni qo‘llagan holda talqin qilish” [Borovskiy & Boldyrev, 1949].

Baholashning o‘ziga xosligi uning antroposentrikligidir. Chunki, aynan inson obyekt va hodisalarni ijobiy yoki salbiy sifatlarga ega bo‘lishiga sababchi bo‘ladi, faqat inson ongida va til asosida ular shunday ajralib turadi. Binobarin, “inson ongida tabiat obyektlari va hodisalari haqida olingan bilimlarni baholovchi talqin etuvchi konsept va kategoriyalarning alohida tizimi mavjud” [Boldyrev, 1998; 43].

